

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti bilan hamkorlikda faoliyat boshlagan AQSHning **Webster universiteti** (Webster University, George Herbert Walker School of Business and Technology) **Master of Business Administration** (MBA: **Biznes boshqaruvi magistratura** yo'nalishi) o'quv dasturi asosida "**Loyihalarni boshqarish**" yo'nalishiga talabalarni qabul qilish jarayoni boshlanganligini ma'lum qiladi.

O'quv dasturi davomiyligi - 18 oy, 3 semestr.

Ta'lim Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida, Webster universiteti professorlari va mahalliy professor-o'qituvchilar tomonidan (**ingliz tilida**) universitetlar o'rtasida imzolagan kelishuvga asosan olib boriladi.

Webster universiteti MBA dasturi "AQSHning biznes-maktablar va dasturlar akkreditatsiya Kengashi"ning akkreditatsiyasidan o'tgan bo'lib, uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ham maqullangan. Ta'limni muvafaqqiyatli tamomlagan talabalar "Loyihalarni boshqarish" yo'nalishi bo'yicha Webster universiteti MBA magistri **diplomini** qo'lga kiritadilar.

O'quv to'lov-kontrakt qiymati bir semestr uchun 3000 AQSH doll. Ta'lim uchun umumiy to'lov qiymati 9000 AQSH doll. To'lov O'zbekiston milliy valyutasi so'mda amalga oshiriladi (AQSH dollarining so'mga nisbatan qiymati, Markaziy bank tomonidan to'lov amalga oshirilgan kunda belgilangan kursda hisoblanadi). Darsliklar va ta'lim jarayoni uchun zarur o'quv materiallari uchun to'lovlar qo'shimcha tarzda amalga oshiriladi.

O'quv dasturi 2019-yilning martidan boshlanadi. Talabalar o'qish davrida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining tizim tashkilotlarida amaliyot o'taydilar. Ta'lim ingliz tilida olib boriladi. **IELTS** bo'yicha talab **6.0** va undan yuqori.

Shuningdek, ta'lim olish xohishini bildirganlar bakalavr bosqichini tamomlagan bo'lishlari, hamda iqtisodiyot, biznes va menejment fanlari bo'yicha bazaviy bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Arizalar topshirishning so'nggi muddati: 20.02.2019 y.

Ma'lumot uchun telefonlar: +998-71-235-09-00, +998-97-711-40-22

E-mail: k.nargiza@tuit.uz

Manzil: Toshkent sh., 100200, Amir Temur Shoh ko'chasi, 108-uy.

Ma'sul shaxslar: Aripxodjayev Muzaffar, Xujanazarova Nargizaxon